

OLDI-SOTDI
SHARTNOMA № 39626

25-avgust 2022-yil

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari D.Xodjaeva bundan buyon bir tomondan «Sotib oluvchi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan "Namangan Gullari Savdo Servis" MCHJ rahbari O.Djurayev nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI.

1. Sotuvchi Sotib oluvchiga ushbu shartnomaga asosan mavsumiy gullarni etkazib beradi.
2. Sotib oluvchi esa o'z navbatida ushbu tovarlar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida „Buyurtmachi» esa olib kelingan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan shartlar asosida Sotuvchigato'laydi.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	Katarantus	Dona	32 948	2 500	82 370 000
2	Petuniya	Dona	65 350	1 800	117 630 000
	Jami:				200 000 000

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi 200 000 000 so'm (Ikki yuz million) so'm.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. Sotib oluvchishartnoma imzogandan so'ng yetkazib berilishilozim bo'lgan mahsulot umumiy qiymatining 30 foizini, yani 60 000 000 so'mni oldindan to'laydi. Mahsulotlar to'lovining qolgan qismini, ya'ni 70 foizini esa Sotib oluvchi tomonidan mahsulotlar to'liq etkazilib berilgandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendarkun ichida to'liq to'lab beriladi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

4.1. Sotuvchining huquq va majburiyatlari:

4.1.1 Sotib oluvchi tomonidan mahsulotni umumiy narxning 30 foizi Sotuvchining hisobi raqamiga oldindan tolangandan song Sotuvchi Sotib oluvchini tovar bilan ta'minlaydi.

4.1.2 Sotib oluvchiga tovarni tegishli xujjatlar asosida belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

4.1.3 Sotuvchi Sotib oluvchiga qulaylik yaratish maqsadida tovarni o'z transport vositalarida Sotib oluvchining manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati Sotuvchining zimmasida qoladi.

4.1.4 Sotuvchining transport vositasida yetkazilgan tovarning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan Sotib oluvchi Sotuvchining vakili ishtirokida tovar yetkazilgan kunda dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad xisobi Sotuvchi tomonidan 3 kun muddat ichida to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

4.2 Sotib oluvchining huquq va majburiyatlari:

4.2.1. Sotib oluvchi sotuvchidan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovar uchun umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, tovarni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

4.2.2 Sotib oluvchi Sotuvchidan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilgan ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat setifikatiga ega bo'lgan tovarlarni talab qilish maqsadiga ega. Sotib oluvchi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati fssortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa sotib oluvchi (tovarlarni ishlarni xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizmiqdorida jarima undirib olishga agar (tovalar, ishlar va xizmatlar) haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqli.

V. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlarning milkiy jabobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.2. «Sotuvchi» tomonidan yetkazib berilgan tovar uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi Sotib oluvchi tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda Sotuvchiga penya to'laydi.

5.3 Sotuvchi tomonidan Sotib oluvchiga berilgan buyumlarni sotib oluvchi ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda Sotib oluvchidan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) tovar summasining 5 foizi, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

5.4. Sotuvchi tomonidan sotib oluvchiga yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlarni yetkazib berishni Sotuvchi asossiz ravishda kechiktirsa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 25-moddasiga muvofiq kechiktirilgan har bir kun uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

VI. FORS-MAJOR XOLATLARI

6.1. Taraflardan hech bir boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma buyicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi epidemiya holati blokada embargotabiyofatlar) bilan bog'liq xolatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Sotib oluvchi joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishi oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytida bevosita o'zi yoki uning ijro organlari, mansabdor shaxslar va xodimlar tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligi, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligi, taklif etilmaganligi, ularni berishga vada qilinmaganligi, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligi (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligi) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

GOV.UZ tizimi orqali ЭРИ билан tasdiqlangan. Хужжат коди: PF17576266
8.5. Tarifning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarlilarni bartaraf qilish bo'yicha o'qilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilgan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu tarif shartnomani bir tarafdin to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

ХУЛОСА
№ OF0644553215

IX. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI.

1. Loyihaning turi: Shartnoma № 396/20
- 9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxada saqlanadi.
- 9.2. Shartnoma hududiy G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan va tarflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr kunigacha amal qiladi.

3. Loyiha ishlab chiqarishi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqida Tomonlarning manzillari va rekvizitlari: /Loyiha Farg'ona shahar

"Namangan Gullari Savdo Servis" MCHJ	"Farg'ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi"
Manzil: Namangan shahar, Samarqand ko'chasi 60 b uy	Manzil: Farg'ona shahar Mustaqilik ko'chasi 3-uy
Tel/faks:	Tel/faks: +99895 400 0105
X/r: 20208000404857804001	INN 200 145 479 OKOHX 90290
Asaka bank Namangan filiali	X/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO: 00231	Markaziy bank Toshkent XKKM
STIR: 30163563	MFO: 00014
QOS tolovchining kodi:	STIR: 201 122 919



Rahbar O.Djurayev

Rahbar




D.Xodjaeva

ХУЛОСА

Shartnoma to'rtinchi bo'shida ko'rsatilgan quruvchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish mas'uliga muvofiq.

Markaz bo'sh, yuridik jarayoni



Sb.Ochilov

27.05.2022

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA
№ OF0644553215**

1. Loyihaning turi: Shartnoma № 39626

2. Loyihaning nomi: Budget tashkilotlariga tovar yetkazib berish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va “E-huquqshunos” elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Shartnoma loyihasi Farg’ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi va “Namangan Gullari Savdo Servis” o‘rtasida 2022-yil 25-avgust kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 25-avgust kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan. Mazkur shartnoma loyihasi markaz tomonidan batafsil o‘rganib chiqilib 2022-yil 27-avgust kuni xulosa berilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif:

Mazkur shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib:

Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunchilikka mos holda tuzilganligi;

tomonlarning shartnomada ko‘rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o‘zaro nizolarni hal qilish yo‘llari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

X U L O S A:

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Sh.Ochilov

27.08.2022



«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Фарғона шаҳар

Ободонлаштириш бошқармаси

бошлиғи

Д.Хаджаева

Фарғона шаҳри

25.08.2022 йил

Фарғона шаҳар Ободонлаштириш бошқармасига мавсумий гуллар (катарантус,петунья) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун №136405 лот рақамли эълоннинг 19 август 2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси
БАЁННОМА ХУЛОСА СИ

1. Фарғона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига мавсумий гуллар (катарантус,петунья) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фарғона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига мавсумий гуллар (катарантус,петунья) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар 19 август 2022 йил кунги тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги «**Давлат харидлари тўғрисида**»ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан **etender.uzex.uz** махсус ахборот порталидаги 19 август 2022 йил кунги тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада ҳолиб деб топилган «Наманган гуллари Сервис» МЧЖ билан белгиланган тартибда 200 000 000 (Икки юз миллион) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Д.Хаджаева  Бошқарма бошлиғи

Б.Ганиев  Бош ҳисобчи

Н.Мамаджонов  Техназор

У.Умаров  Участка устаси

С.Таджибаев  Омборчи